

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ORFOGRAFIYA VA PUNKTUATSIYANI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Nizomova Mexrinisoxon Fazliddin qizi

Toshkent gumanitar fanlar universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21943679>

Kirish. Mazkur dissertatsiya ishi zamonaviy ta'lim sharoitida o'quvchilarning yozma nutq savodxonligi, xususan, orfografik va punktuatsion kompetensiyasini rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan. Globallashuv va raqamli texnologiyalarning jadal taraqqiyoti, ta'lim sifatiga qo'yilayotgan yangi talablar, shuningdek, o'quvchilarda adabiy til me'yorlariga ongli munosabatni shakllantirish zarurati mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Mavjud ilmiy tadqiqotlarda orfografiya va punktuatsiyani o'qitishning alohida jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, ularni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida kompleks o'qitish, strukturaviy-funksional modelini ishlab chiqish va samaradorligini tajriba-sinov yo'li bilan isbotlash yetarlicha yoritilmagan. Shu bois, ishning maqsadi ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida orfografiya va punktuatsiyani o'qitish metodikasini nazariy jihatdan asoslash, amaliy modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini amaliyotda aniqlashdan iborat. Tadqiqot ob'yekti – umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitish jarayoni. Predmeti – o'quvchilarning orfografik va punktuatsion kompetensiyasini shakllantirish mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllari.

Tadqiqot metodologiyasi O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi qonun hujjatlari, davlat ta'lim standartlari, zamonaviy pedagogika va psixologiya yutuqlari, kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv konsepsiyalariga tayanadi. Ishda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, suhbat, anketa, pedagogik tajriba-sinov, diagnostika, taqqoslash, umumlashtirish hamda matematik-statistik tahlil (Student t-mezoni) metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: orfografiya, punktuatsiya, orfografik kompetensiya, punktuatsion kompetensiya, ilg'or pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, strukturaviy-funksional model, yozma savodxonlik.

Asosiy qism. Tadqiqot natijasida orfografiya va punktuatsiyani o'qitishning lingvodidaktik asoslari (tilshunoslikdagi o'rni, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati) va psixologik-pedagogik omillari (idrok, xotira, tafakkur, diqqat, motivatsiya, ta'lim muhiti) tahlil qilindi. An'anaviy va zamonaviy metodik yondashuvlarning qiyosiy tahlili o'tkazilib, ularni uyg'unlashtirish zarurati asoslandi.

Tadqiqotning markaziy ilmiy natijasi – orfografik va punktuatsion savodxonlikni shakllantirishning strukturaviy-funksional modeli ishlab chiqildi. Model quyidagi komponentlardan iborat:

Komponent	Mazmuni
Maqsadli	maqsad, vazifa, kutilayotgan natijalar
Mazmuniy	nazariy bilimlar, didaktik materiallar
Faoliyat	interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha metodi, hamkorlikda o'qitish, raqamli texnologiyalar

Diagnostik	monitoring, formativ va summativ baholash
Natijaviy	kompetensiya darajasi, yozma nutq sifati

Model asosida 5–9-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tajriba-sinov natijalari metodikaning samaradorligini tasdiqladi. Aniqlovchi bosqichda tajriba va nazorat guruhlar o'rtasida boshlang'ich bilim darajasida sezilarli farq bo'lmagan. Shakllantiruvchi tajriba davomida tajriba guruhlarida ishlab chiqilgan metodika qo'llanildi. Yakuniy nazorat natijalariga ko'ra:

- yuqori darajadagi o'quvchilar ulushi 18% dan 39% gacha oshdi;
- past darajadagilar 30% dan 12% gacha kamaydi;
- orfografik savodxonlik 22% ga;
- punktuatsion savodxonlik 23% ga;
- matnni tahrirlash va mustaqil fikrlash ko'rsatkichlari 25% ga oshdi.

Matematik-statistik tahlil ($p < 0.05$) tajriba va nazorat guruhlar natijalari o'rtasidagi farqning ishonchliligini ko'rsatdi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Orfografik va punktuatsion kompetensiya o'quvchilarning umumiy nutqiy va kommunikativ kompetensiyasining muhim tarkibiy qismidir.
2. Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishda an'anaviy metodlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni (interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha metodi, raqamli vositalar) qo'llash samarali hisoblanadi.
3. Ishlab chiqilgan strukturaviy-funksional model o'qitish jarayonini tizimli tashkil etish va o'quvchilar kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.
4. Tajriba-sinov natijalari taklif etilgan metodikaning yuqori samaradorligini va ilmiy farazning to'liq isbotlanganligini ko'rsatdi.
5. Ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili darslari sifatini oshirishga, pedagoglar malakasini oshirish kurslarida va metodik qo'llanmalar tayyorlashda qo'llanilishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Bepalko, V.P. (1989). Слагаемые педагогической технологии. Москва: Педагогика.
2. Farberman, B.L. (2000). Ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan.
3. G'ulomov, A., Qodirov, M., Ernazarova, M., & boshq. (2012). Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Mahmudov, N. (2013). Til. Toshkent: Akademnashr.
5. Mengliyev, B.R. (2018). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Tafakkur Bo'stoni.
6. Tolipov, U.Q., & Usmonboyeva, M. (2006). Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan.
7. Ishmuxamedov, R., Abduqodirov, A., & Pardaev, A. (2008). Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Iste'dod.
8. Vygotskiy, L.S. (1978). Mind in Society. Cambridge, MA: Harvard University Press.